SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 2(4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

## БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

## ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*
ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ........ 10-15

*Umarov Sardor Yakubovich*
QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI, DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR ........ 16-20

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*
O’ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIR ETISH YO’LLARI........ 21-29

*Халилдинов Азизбек Абдуқаххорович*
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР........ 30-34

*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*
КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ........ 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ........ 46-52

*Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi, Achilboyeva Sevinch O’tkir qizi*
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*
ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЬСИРИНИ БАҲОЛАШ УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ........ 61-68

*Namazov Gafur Shokulovich*
IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO’LLASH ........ 69-75

### *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*
YANGI O’ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O’ZGARISHI ....76-81

*Kadirova Ziyoda Rahimdjanovna*
ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI........ 82-86

*Turdiyev Bexruz Sobirovich*
JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI........ 87-92

*Alimatova Nargis Abduxalilovna*
KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI ........ 93-98

*Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi*
MA'NAVIYAT – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR........ 99-103

*Кувандиков Шокир Облокулович*
МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ .......... 104-111

*Yusupaliyev Orzimurod Odilovich*
YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR .......... 112-119

*Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li*
BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI .......... 120-125

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Saitova Nilufar Djumaydillayevna*
YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI .......... 126-130

*Nurmanov Furqat Xayitqulovich*
O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR .......... 131-137

*Qudratova Sitora Olimovna*
AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI .......... 138-148

*Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna*
METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV .......... 149-153

*Qodirova Madinabonu Murodjon qizi*
LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI .......... 154-159

*Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз*
ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ .......... 160-165

*Azimova Aziza Alisher qizi*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI .......... 166-172

*Shoymardonov Ilhom Alixonovich*
BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI .......... 173-178

*Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna*
SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI .......... 179-184

*Mirzayev Jasur, Madalov Navruz*
THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE .......... 185-190

*Yuan Xiaowei*
ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY .......... 191-197

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Ражабов Нариман Шарифбаевич*
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .......... 198-206

*Yakubova Iroda Bahramovna*
MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK

HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O‘RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI ........ 207-212

*Inoyatov Behruzjon Umidjon o‘g‘li*
TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 213-220

*Раимова Шохсанам Ғайратжоновна*
РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ........ 221-227

*Mikumov Bobur*
CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL ........ 228-234

*Нодирахон Абдурахманова*
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА ........ 235-239

*Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли*
ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА ........ 240-246

*Turakulova Nazira*
MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIY BOSHQARISH ........ 247-260

*Якубов Бекзод Эркинбаевич*
КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ........ 261-265

## ***13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***

*Mamajonov Xoshimjon Abdumalikovich*
FIZIKA FANINI IJODIY O`ZLASHTIRISH YO‘LLARI (AKADEMIK LITSEYLAR MISOLIDA) ........ 266-271

*Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna*
O‘ZBEKISTON OLIY O‘QUV YURTLARIDA ISPAN TILI BO‘YICHA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI O‘QITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH ........ 272-281

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*
TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI ........ 282-287

*Jumayev Xushboq Soatmumin o‘g‘li*
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 288-291

*Omonqulov Ulug‘bek Maxsiddin o‘g‘li*
IQTIDORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI ........ 292-296

*Jumaboev Nabi Pardaboevich*
THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM ........ 297-304

*Kayumov Erkin Kazakbayevich*
TASVIRIY SAN’ATNING O‘QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI ........ 305-310

*Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna*
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING ROLI ........ 311-317

*Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna*
SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI ........ 318-322

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 2(4) - 2024.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Abdullayev Ibodulla Abdullayevich**
Ma’mun universiteti NTM o‘qituvchisi,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

**Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

## MA'NAVIYAT – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ma’naviyat va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mamlakatimiz taraqqiyotida tutgan o‘rni hamda so‘nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr-mulohazalar, amaliy taklif va xulosalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy tiklanish, tashabbuskorlik, ijtimoiy hamkorlik, qadriyat, korrupsiya, maqom, kinematografiya.

**Abdullayev Ibodulla Abdullayevich**
Mamun University NTM teacher,
Researcher of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek

**Mustafoyeva Feruza Khurshid kizi**
2nd-grade student of the National Idea,
Foundations of Spirituality and Legal Education of the
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## SPIRITUALITY IS AN IMPORTANT FOUNDATION OF NEW UZBEKISTAN DEVELOPMENT

**Abstract.** This article contains opinions, practical suggestions, and conclusions about the role of spirituality and spiritual-educational work in the development of our country, as well as about the reforms being implemented in our country in recent years.

**Key words:** national revival, initiative, social cooperation, value, corruption, status, cinematography.

**Абдуллаев Ибодулла Абдуллаевич**
преподаватель НТМ Университета Мамуна,
научный сотрудник Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека

**Мустафоева Феруза Хуршид.**
Студент 2 ступени Национальной идеи, основ духовности
и правового образования Национального университета

Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## ДУХОВНОСТЬ – ВАЖНАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** В данной статье собраны мнения, практические предложения и выводы о роли духовности и духовно-просветительской работы в развитии нашей страны, а также о реформах, реализуемых в нашей стране в последние годы.

**Ключевые слова:** национальное возрождение, инициатива, общественное сотрудничество, ценность, коррупция, статус, кинематография.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N14

Bugungi kunda mamlakatimizda keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bular natijasida esa xalqimizning ong-u tafakkuri va dunyoqarashi oʻzgarmoqda.

Soʻnggi yillarda yurtimizda maʼnaviyat sohasiga juda katta eʼtibor berilmoqda. Xalqimizning yuksak maʼnaviyatli, maʼrifatli boʻlishi uchun turli xil tadbirlar, tashviqot ishlari tashkillashtirilmoqda. Qisqacha aytganda, mamlakatimizda boshqa sohalar kabi maʼnaviyat sohasiga ham alohida eʼtibor berilmoqda. Chunki maʼnaviyat buyuk hodisa. U bir xalqning taraqqiyotini oʻzgartira oladigan, uni yuksaklikka erishtiradigan kuchdir. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, "Maʼnaviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam boʻlsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli boʻladi" [1].

Maʼlumki, hozirda Yangi Oʻzbekiston barpo etishdek ezgu maqsadni oʻz oldimizga qoʻygan ekanmiz, eng avvalo, bu borada mavjud muammolarni hal etishimiz, maʼnaviy-maʼrifiy ishlarning samarasi va taʼsirchanligini yanada oshirishimiz, koʻlami va miqyosini tobora kengaytirishimiz, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirishimiz lozim. Shuning uchun ham ushbu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida koʻplab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, yurtboshimizning 2021-yil 26-martda qabul qilgan "Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori bunga yaqqol misol boʻla oladi. Mazkur qarorga asosan ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" gʻoyasini keng targʻib etish orqali jamiyatda sogʻlom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish asosiy maqsadga aylantirildi.

Bugun insoniyat taraqqiyoti tezlik bilan oldinga ilgarilamoqda. Inson hayoti qulaylashib, mukammal koʻrinishga ega boʻlishiga qaramay uning ehtiyojlari tobora ortmoqda. Bu esa jamiyatlar oʻrtasida ham ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Ana shunday holatda diqqat qaratilishi shart boʻlgan va boshqa muammolarni ham hal etishga qodir boʻlgan jarayon va soha mavjud. U, shubhasiz, maʼnaviyatdir. Zero, maʼnaviyat biz koʻzlagan manzilga eltuvchi birdan bir toʻgʻri yoʻldir.

Binobarin, maʼnaviyat va maʼnaviy-maʼrifiy jarayonlar jamiyat hayotida quyidagilarni amalga oshirishning asosiy omili boʻlib xizmat qiladi:

– vatanimiz rivoji uchun tashabbuskorlikni kuchaytirish, jamiyatda ijodiy va maʼrifiy muhitni yaratish, har bir shaxsda atrofda roʻy berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan daxldorlik hissini uygʻotish, befarqlik, loqaydlik kabi salbiy illatlarga barham berish;

– har bir fuqaroda Vatanga va millatga cheksiz muhabbat hissini shakllantirish, Vatanning muqaddasligi, u insonning kindik qoni toʻkilgan tuproq, uni voyaga yetkazadigan, hayotiga mazmun baxsh etadigan tabarruk maskan ekanligini tushuntirish;

– kishilarda ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bagʻrikenglik kabi umumbashariy sifatlarni rivojlantirish, ularga millatchilik va shovinizm hamjihatlikka raxna soluvchi salbiy illatlar ekanligini tushuntirish;

– xalqimizning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish, ularning davlat va jamiyat oldida turgan muqaddas vazifalarni anglab yetish darajasini oshirish, mamlakatimiz hayotida roʻy berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qila olish salohiyatini shakllantirish;

– jamiyatimiz a'zolarining ma'naviy olamini, dunyoqarashini kengaytirish, har sohada ijtimoiy faolligini oshirish, targʻibot-tashviqot ishlarining koʻlamini kengaytirish;

– siyosiy-huquqiy bilim saviyasini oshirish, dunyoda sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarga baho berish koʻnikmasini shakllantirish, mafkuraviy-gʻoyaviy jarayonlarni ongli ravishda anglab yetishiga koʻmaklashish.

Davlatimiz rahbari ma'naviy-ma'rifiy ishlarga katta e'tibor qaratish zarurligini koʻp bora ta'kidlaganlar. 2023-yilning 22-dekabrida boʻlib oʻtgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisida ma'naviyatning hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerakligini ta'kidladilar. Jumladan, ushbu majlisda yurtboshimiz tomonidan, avvalo, ma'naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodik asos boʻlib xizmat qiladigan milliy gʻoyamizni rivojlantirish boʻyicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqishimiz lozimligi va bu jarayonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablari hisobga olinishi zarurligi qat'iy ta'kidlandi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali chetdan ba'zan oʻzimizdan ham Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar ilgari surilayotganligi, diniy e'tiqod niqobi ostida yoshlarni ma'rifatga emas, balki jaholatga yetaklayotgan kishilarning paydo boʻlayotganligi, dunyoviy qadriyatlarni rad etayotgan soxta "da'vat"lar paydo boʻlayotganligi ham majlisda keltirib oʻtildi.

Chindan ham, hozirda odamlar orasida ijtimoiy tarmoqlar orqali boshqalarning ongini zaharlaydigan, ularga goʻyo oʻzlarining "toʻgʻri" yoʻlini koʻrsatayotgan har xil notoʻgʻri fikrlar tarqalmoqda. Ma'rifatdan uzoq, sogʻlom dunyoqarashga ega boʻlmagan kishilar esa bu kabi yolgʻonlarga aldanmoqda. Oʻz navbatida bu kabi holatlar mamlakatimiz aholisining yuksak ma'naviyatga naqadar ehtiyoji bor ekanligini koʻrsatmoqda. Prezidentimizning "Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan oʻn qadam oldinda yurishi kerak" [2] degan fikrlari hayotiy ehtiyojimizga aylanmoqda. Agar ma'naviyat oldinda emas, orqada qolar ekan, jamiyatimizni turli xil jinoyatlar, korrupsiya holatlari, oʻzaro ziddiyatlar qamrab oladi. Shuning uchun ham ilk navbatda ma'naviyatimizni yuqori oʻringa chiqarishimiz va rivojlantirishimiz kerak.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisida ma'naviyatimizni yanada yuksaltirish borasida quyidagi ishlarga e'tibor berilishi ta'kidlandi:

Birinchidan, yoshlar tarbiyasida mahalla faollari, nuroniylarning e'tiborini kuchaytirish;

Ikkinchidan, madaniy-ma'rifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga koʻtarishda hokimlarning mas'uliyatini keskin oshirish,

Uchinchidan, yoshlarimizni milliy va umumbashariy gʻoyalar asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, teatr san'atining oʻrnini oshirish;

Toʻrtinchidan, madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish;

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san'atini rivojlantirish, ijro va ijodiy maktablarni, bu boradagi an'analarni ilmiy asosda oʻrganish va qayta tiklash ishlarini yanada kuchaytirish;

Oltinchidan, milliy madaniyatimiz rivojida muhim oʻringa ega boʻlgan musiqa va raqs san'atini ravnaq toptirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Yettinchidan, xalqaro maydonda oʻzbek madaniy diplomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyohlarga keng tanishtirish ishlarini yangi bosqichga koʻtarish;

Sakkizinchidan, kino sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarni davom ettirish;

Toʻqqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirish.

Bundan tashqari, oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarni davom ettirish ham belgilandi. Bu boradagi ishlar har doim amalga oshirilishi kerak. Chunki keyingi yillarda mamlakatimizda oʻzbek tilining nufuzi pasayib borayotganligining guvohi boʻlyapmiz. Eng oddiy misol qilib, televideniye kanallarida efirga uzatilayotgan koʻrsatuvlarda imloviy xatolarning mavjudligi yoki televideniyeda adabiy tilda emas, shevada soʻzlashish holatlarini keltirish mumkin. Bu kabi holatlar tilga boʻlgan hurmatning yoʻqolishiga olib keladi. Tilimiz madaniyatimiz, ma’naviyatimizning eng oldingi oʻrnida turadi. Oʻz tilini mukammal bilmaydigan, uni hurmat qilmaydigan insonni ma’naviyatli deb boʻlmaydi.

Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish boʻyicha olib borilayotgan ishlar izchil davom ettirilishi, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalari koʻp nusxalarda chop etish va kutubxonalarga yetkazib berish ta’kidlandi. Kitob oʻqish madaniyatini oshirish yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kitob oʻqigan insondan yomonlik chiqmaydi.

Bugungi dunyoning turli hududlarida kechayotgan tahlikali voqealar insoniyatni tanazzulga yetaklab borishi mumkinligini, agar ularni oʻz vaqtida anglab, unga qarshi kurash olib borilmasa insoniyat tarixida mudhish voqealar sodir boʻlishi mumkinligini koʻrsatmoqda. Ana shunday mudhish voqealarning oldini olishda ma’naviyat sohasiga har doimgidan-da koʻproq ahamiyat berish muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham endigi vazifa bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish hamda fuqarolarimizni zamonaviy usul va uslublar bilan qurollantirishdir.

Bunda oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash hamda targʻibot-tashviqot ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha boʻyicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish muhim hisoblanadi.

Yurtimiz fuqarolarini el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urugʻ-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, aholining Internet jahon axborot tarmogʻidan foydalanish madaniyatini oshirish, gʻoyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish lozim. Har bir shaxs shu yurt uchun mas’ul ekanini chuqur anglashi lozim.

Bugun globallashib borayotgan va ma’rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan zamonda yashamoqdamiz. Ana shunday tahlikali davrda ma’naviyatga har qachongidan ham koʻproq muhtojmiz. Hozirda chetdan kirib kelayotgan milliy ma’naviyatimizga yot boʻlgan gʻoyalarning yoshlar ongiga zarar yetkazishiga yoʻl qoʻymasligimiz lozim. Shu maqsadda Yangi Oʻzbekistonning ma’naviy-ma’rifiy sohadagi bugungi taraqqiyoti va kelgusidagi istiqbolini belgilaydigan strategik dasturlar ishlab chiqish zarur.

Uzluksiz ta’lim tizimida har bir shaxsning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ma’naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim.

Yuqorida keltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishda ma’naviyat targʻibotchilarining ham oʻrni katta.

Ayni damda yurtimizda ma'naviyat sohasi davlat siyosatining muhim yo'nalishidan biridir. Shu sababli qabul qilinayotgan strategik dasturlar, vazifalarda ma'naviyat ham o'rin egallagan. Masalan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish" bo'yicha islohotlar keltirilgan. Unda quyidagi vazifalar belgilangan:

– Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash;

– O'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni rivojlantirish;

– Zamonaviy teatr va sirk san'atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g'oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish;

– O'zbek milliy san'atini targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish;

– Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish;

– Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlarini rivojlantirish;

– Milliy kinematografiyani rivojlantirish.

Ushbu strategiyadagi vazifalar ham ma'naviyatimizning yuqori pog'onaga ko'tarilishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, bugunga kelib ma'naviy sohadagi voqelik va jarayonlarni huquqiy tartibga solish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish va bunda zamon talablarini, Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevorini qo'yish ehtiyojlarini hisobga olish zarurati yetilgan. Ana shu ehtiyojlarni hisobga olgan holda yurtimizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Milliy ma'naviyatimizning yuksalishida ma'lum bir guruh yoki jamoaning harakati yetarli bo'lmaydi. Bunda butun millat, jamiyat birgalikda harakat qilishi lozim. Ana shunda biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishamiz!

## Литература/Адабиётлар/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. – B. 267.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 2023-yil 22-dekabr.
3. To'rayev Sh., Jamolova N., Xusanova N., Madraximov A., O'lmasxo'jayev Z., To'rayev K. Davlat tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son Qarori.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).